O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2022 - yil 12 - yanvar 12-8-115-Q/22 Muzrabot tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2022 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)

— ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

3. Mazkur qarorning 2-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart — 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentyabr — 31 oktyabr gacha o‘tkazilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar — 31 dekab gacha o‘tkazilsin.

4. Tumanda texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022 yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 yanvardagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-son qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi nazarda tutilsin.

6. Majburiy texnik ko‘rik davomida komissiya tarkibida ish olib boruvchi xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

7. Mazkur qaror “Muzrabot” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Achildiyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v/b **A.A.Achildiyev**

Музработ туман ҳокимининг
2022 йил 12 январдаги
12-8-115-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi :

F.Allanazarov		Muzrabot tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, kapitan

Komissiya raisi o‘rinbosari:

A.Achildiyev	-	Muzrabot tuman hokiminipng 1-o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

F.Jabborov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

Komissiya a’zolari:

T.Xamidov	-	Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri
M.Umirqulov	-	Tuman avtomotohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati a’zosi *(kelishuvga asosan)*

Музработ туман ҳокимининг
2022 йил 12 январдаги
12-8-115-Q/22-сон қарорига
2-илова

Tumandagi xududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini 2022 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1.	Xalq ta’limi	01.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	2
2.	Davlat Soliq inspeksiyasi	02.03.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
3.	Vatanparvar tashkiloti	03.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	10
4.	Axoli Bandligiga kumaklashish markazi	04.03.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
5.	Muzrabot tuman Gaz filiali	07.03.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	12
6.	Toza Xudud	08.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	10
7.	Jasur trans lagistik servis MChJ	09.03.2022	**9:00 – 17:00**	Yurtim Jamoli	20
8.	Elga Xizmat KTXK	10.03.2022	**9:00 – 17:00**	Ko‘ng‘irot SFU	17
9.	Oybek Avtokllas MChJ	11.03.2022	**9:00 – 11:00**	Ko‘ng‘irot SFU	26
10	Bobur Avto MChJ	14.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	10
11	Muzrabot Avtotransportchi MChJ	15.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	37
12	Muz.avtoda yuk va yul.tashish MChJ	16.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	56
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	17.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	10
14	Qurbonov N MChJ	18.03.2022	**9:00 – 17:00**	Yo‘lchi maxallasi	14
15	Tuman xokimiyati	21.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	6
16	Chiroy Muzrabot qurilish x/k	22.03.2022	**9:00 – 17:00**	Xalqobod qurg‘oni	4
17	Boldir Neftebaza	23.03.2022	**9:00 – 11:00**	Boldir QFY	8
18	KX Kimyo filiali	24.03.2022	**9:00 – 17:00**	Yurtim Jamoli	12
19	Tuman KSXB	25.03.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
20.	Muzrabot YFUK	28.03.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	6
21	Muzrabot paxta AJ	29.03.2022	**9:00 – 11:00**	Yurtim Jamoli	4
22	Muzrabot Tola baza MChJ	01.04.2022	**9:00 – 11:00**	Yurtim Jamoli	4
23	Suvoqava Duk filiali	04.04.2022	**9:00 – 11:00**	Duoba maxallasi	13
24	Mexnat roxat X/K	05.04.2022	**9:00 – 17:00**	Yurtim Jamoli	63
25	Tibbiyot birlashmasi	06.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	6
26	Tuman DSENM	07.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	4
27	XMKJ – 254 MChJ	08.04.2022	**9:00 – 17:00**	Ko‘ng‘irot SFU	12
28	Muzrabot non MChJ	11.04.2022	**9:00 – 11:00**	Yurtim Jamoli	2
29	Astillaev firdavs x/k	12.04.2022	**9:00 – 11:00**	Bodomzor maxallasi	4
30	Avto dizel u/k	13.04.2022	**9:00 – 11:00**	Yurtim Jamoli	2
31	Muzrabot tezkor qurilish	14.04.2022	**9:00 – 11:00**	Darvoza maxallasi	5
32	Telekommunikatsiya bog‘lanmasi	15.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
33	Pochta aloqa tarmog‘i	18.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
34	MuzrabotTETK	19.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	5
35	Sarbon ysse	20.04.2022	**9:00 – 11:00**	Darvoza maxallasi	6
36	Lochin X/K	21.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	1
37	Duradgor X/K	22.04.2022	**9:00 – 11:00**	Xalqobod qurg‘oni	2
38	Bexruz avto X/K	25.04.2022	**9:00 – 11:00**	Buzrukobod MMTP	2
39	Kichik korxonalar	26.04.2022- 21.06.2022	**9:00 – 11:00**	Yurtim Jamoli	